

**YUNUS RAJABIY NOMIDAGI MAQOM ANSAMBILINING AN'ANAVIY IJROCHILIK
SOHASIDAGI TUTGAN O'RNI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14254081>

Tursunov Xurshid Abduraimovich

*Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti Musiqa ta'limi kafedrasida
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada O'zbek xalq musiqasi san'ati o'zining milliy jarayonlarida o'ziga xos va mukammal darajada shakllangan betakror xalq va mumtoz musiqasi merosiga ega. XX asrga kelib, bu ijtimoiy hayot so'qmoqlarida va musiqasi madaniyatimizda yangi yo'nalish joriy etila boshlandi. Bu ana shu g'arb musiqasi madaniyatining negizida musiqasi ijodiyotini kamol toptirish deb yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *xalq musiqasi san'ati, qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi, shashmaqomttt Talqin, Nasr, Savt, musiqasi ijodiyotini kamol toptirish.*

Аннотация: *В статье искусство узбекской народной музыки имеет уникальное фольклорное и классическое музыкальное наследие, уникальное и прекрасно сформированное в своих национальных процессах. К XX веку в эти пути общественной жизни и в нашу музыкальную культуру стало внедряться новое направление. Это основа западной музыкальной культуры, которую объясняют развитием музыкального творчества.*

Ключевые слова: *народное музыкальное искусство, древняя история, глубокие философские корни, уникальный художественный стиль, шашмакомтттт Талькин, Профи, Savt, совершенство музыкального творчества.*

Abstract: *In the article, the art of Uzbek folk music has a unique folklore and classical musical heritage, unique and perfectly formed in its national processes. By the 20th century, a new direction began to take root in these ways of social life and in our musical culture. This is the basis of Western musical culture, which is explained by the development of musical creativity.*

Key words: *folk musical art, ancient history, deep philosophical roots, unique artistic style, shashmakomtttt Talkin, Profi, Savt, perfection of musical creativity.*

KIRISH

Yunus Rajabiy deganda o'zining samarali ijodi, qoldirgan ulkan musiqiy merosi bilan o'zbek milliy musiqasiga bebaxo hissa qo'shgan buyuk san'atkor ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Musiqiy madaniyatimizda uning alohida o'rni bo'lib, o'z ijodiy va ilmiy ishlari natijasida akademik darajasiga ko'tarilgan. Hoji Abdulaziz Abdurasulov uning ijodiy faoliyatida muhim rol o'ynadi. Yunus Rajabiy 1927 yilda tashkil qilingan birinchi o'zbek radiosi milliy cholg'u ansamblining asoschisi va musiqasi rahbari bo'ldi. Maqomlarning

amaliy mezonlarida ish olib borib, an'anaviy ijrochilikning kasbiylikka xos tomonlarini amaliyot asosida tasniflashning ham o'ziga xos ijobiy tomonlari mavjud. Ustoz Yunus Rajabiy tomonidan nashr etilgan "Musiqqa merosimizga bir nazar" kitobi har tomonlama ushbu mezonga ibratdir. Yunus Rajabiy rahbarligida o'zbek mumtoz musiqqa merosi ijrochiligi XX asrning 1920-yillaridan boshlab amaliy faoliyat olib borgan. Ayniqsa 1950-yillarning ikkinchi yarmidan, "maqom ansambli" rasman tashkil etilgan davrdan zamonasining eng mashhur maqom ijrochilarining maqomlar ijrochiligi amaliyotida o'ziga xos ijodiy munosabat yuzaga kelgan va bu jarayon keying yillarda O.Alimaxsumov, G'.Toshmatov, Sh.Mirzayev, I.Vahobov va A.Ismoilovlar kabi davrining maqomdon ustozlari rahnamoliklarida davom etib kelmoqda.

O'zbek xalq musiqqa san'ati o'zining milliy jarayonlarida o'ziga xos va mukammal darajada shakllangan betakror xalq va mumtoz musiqqa merosiga ega. XX asrga kelib, bu ijtimoiy hayot so'qmoqlarida va musiqqa madaniyatimizda yangi yo'nalish joriy etila boshlandi. Bu ana shu g'arb musiqqa madaniyatining negizida musiqqa ijodiyotini kamol toptirish edi. Qayd etish joizki, har qanday musiqqa xalq madaniyatining rivojiga xizmat qilsa, albatta amaliyotda o'z ijobatini topadi Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda alohida muhim o'rin egallaydi. Asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan. Maqom san'atining gultoji bo'lgan "Shashmaqom" YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatda e'tirof etilgani hamda uning Rerezentativ ro'yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig'idir. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda maqom san'atini o'rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o'zbek "Shashmaqomi" nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo'shiqlarining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea bo'ldi. Hozirgi kunda yurtimizda Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli, hududlarda maqom jamoalari, O'zbekiston davlat konservatoriyasida shu yo'nalishda maxsus kafedra faoliyat ko'rsatayotgani, sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilayotganini qayd etish lozim.

Adabiyotlar tahlili. Yoshligidanoq shirali va ta'sirchan ovozga ega bo'lgan iste'dodli xonanda va mohir sozanda sifatida tanilgan. Uning repertuaridan maqom parchalari, "Girya", "Ushshoq", "Ko'cha bog'i", "Eshvoy", "Kurd", "Qalandariy", "Gulyor—Shahnoz", "Bayot", "Dugohi Husayniy", "Chorgoh", "Miskin", "Nasrullovi" kabi ashula va kuy turkumlari o'rin olgan. U bir qancha qad. o'zbek xalq kuy va ashulalarini qayta ishlab tiklagan: "Subhidam", "Yolg'iz", "Sayqal", "Fig'on", "Oraz", "Begi Sultan" va b. Ijrochilik faoliyatini bastakorlik b-n birgalikda olib borgan Yunus Rajabiy o'zbek musiqali dramasi shakllanishiga muhim hissa qo'shgan. Dastlab "Farhod va Shirin" (Xurshid, 1922—25, Sh. Shou- marov b-n hamkorlikda), "Layli va Majnun" (Xurshid, 1926), "Rustam" (U. Ismoilov,

1933), “Avaz” (A. Hidoyatov, 1935), “Xolisxon” (Hamza, 1940) kabi spektaklarga xalq ashulalari asosida kuylar bastalagan. Keyinchalik B. Nadejdin b-n hamkorliqsa “Qasos” (A. Umariy, Uyg’un, 1941), N. Mironov b-n “Qo’chqor Turdiyev” (S. Abdulla, Chustiy, 1942), G. Mushel b-n “Muqanna” (H. Olimjon, 1943), O. Halimov b-n “Nodira” (S. Kosimov, Ya. Mamatxonov, 1942-43), B. Zeydman b-n “O’g’il uylantirish” (H. Fylom, 1964), Sayfi Jalil b-n “Navoiy Astrobodda” (I. Maxsumov, 1968) singari musiqali dramalarni yaratgan. U “Zaynab va Omon” operasi (1958; B. Zeydman, D. Zokirov va T. 1955—59 y.larda Yunus Rajabiy 5 jildli “O’zbek xalq musiqasi” (I. A. Akbarov taxririda) to’plamini nashr ettirdi. Unga mingga yaqin turli janrdagi o’zbek (bir kancha tojik, uyg’ur) kuy va ashulalari, Buxoro Shashmaqomi, Farg’ona — Toshkent maqom yo’llari, katta ashulalar, 20-a. bastakorlari (Hamza, K. Jabborov, N. Hasanov, S. Kalonov,

F. Sodiqov, T. Jalilov, M. Mirzayev va b.)ning asarlari kiritilgan. “Maqom” ansambli b-n ishlashi jarayonida Yunus Rajabiy Shashmaqomning 6 jildli yangi nashrini (1966—74, F. Karomatov tahririda) hamda gramplastinka yozuvlar mukammal to’plamini (Toshkent grammyozuvlar studiyasida, 1970-y.lar) tayyorladi. T. Sodiqov, D. Zokirov, D. Soatqulov, F. Sodiqov, N. Hasanov, K. Jabborov, S. Kalonov, K. Mo’minov, O. Imomxo’jayev, B. Davidova, K. Ismoilova, O. Alimahsumov, T. Alimatov va b. san’atkorlar Yunus Rajabiyning shogirdlaridir.

Yunus Rajabiy Hamza nomidagi O’zbekiston Davlat mukofoti laureati (1971), “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni (2000) b-n mukofotlangan. O’zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi “Maqom” ansambli, Jizzax musiqali drama va komediya teatri, Toshkent musiqa pedagogika bilim yurti, Toshkentdagi ko’chalardan biri, metro bekati Yunus Rajabiy nomi b-n yuritiladi.

Tadqiqot vazifalari. “Maqom” iborasi keng mazmunli tushuncha bo’lib, u, jumladan, o’z ichiga milliy musiqamizdan kelib chiqib Mir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sakkokiy, Atoiy, Ogahiy va shu kabi mumtoz shoirlarimiz qalamiga mansub shoirlarimiz tomonidan yozilgan g’azallarini maqom ohanglariga solib ijro qilinishi tushuniladi. Bundan tashqari maqom ohanglariga yaqin bo’lgan bastakorlik ijodida ishlatiladigan ijrolar ham mavjud. Bulardan misol qilib “Otmagay tong”, “Farg’ona tong otguncha”, “Munojot”, “Aylagach”, “Gulzorim” “Mustahzod”, “Dog’man”, “Topmadim”, va shunga o’xshash bir qator qo’shiqlar bastakorlik asarlari bo’lishiga qaramay xalqimiz ongiga yod bo’lib maqomlarimiz kabi bo’lib qolgan. Bundan tashqari xalq qo’shiqlari ham mavjud bo’lib ularni maqomlarimiz yoki bastakorlik asarlariga aralashtira olamaymiz. Ansambлга badiiy rahbarlik Yunus Rajabiy zimmasiga yuklanadi, Ushbu ansambl faoliyati davomida “Maqom kechalari” uyushtirilib, maqom xalq ichida qaytadan tilga kirdi va xalqimiz bu yuksak madaniy-ma’naviy me’rosimizni yana eshitishga muyassar bo’ldilar. So’ngra ansambl shu yillari “Shashmaqom” turkumining maqom ashula yo’llarining barcha sho’balari va ko’pgina cholg’u yo’llari magnit tasmlariga yozdirilib, 22 gramplastinkadan iborat “Shashmaqom” audio yozuvlari chop etilib, tarqatildi va ansambl ularni targ’ib qilish ishlarini boshlab yubordi. XX asrning ikkinchi yarmi mobaynida O’zbekiston radiosi

huzuridagi “Maqom” ansambli “Shashmaqom” va “Farg’ona-Toshkent maqomlari”ni mukammal o’zlashtirishda, jamoaviy ijrochilikni yo’lga qo’yishda hamda rivojlantirishda maqom ansambli Yunus Rajabiy va uning yonida uzoq yillar davomida musiqa rahbari vazifasida turgan Fahriddin Sodiqov eng mustaqil ishongan tayanchi, yaqin maslahatchi va yordamchisi bo’ldi. Maqom cholg’u yo’llarining mukammal holdagi cholg’u ijrochiligiga bevosita mas’ullik qildi.

Mavzuning dolzarbligi. Keyinchalik Maqom ansambllari yangicha shart-sharoitlarda mumtoz milliy musiqa ijodiyotini keng targ’ib qilish maqsadida qayta tuzilgan. O’tmishda Maqom ansambllari tomonidan maqomlar yaxlit turkum holda yoki ularning alohida-alohida cholg’u va ashula qismlari ijro etilgan. Bunda, jumladan, Shashmaqomttt Talqin, Nasr, Savt kabi sho’balarini aytishga ixtisoslashgan hofizlar talqinxon, nasrchi, savtxon deb yuritilgan. Ularga tanbur, doyra yoki ixcham cholg’u ansambli jo’rlik qilgan. Jumladan, 19-asrning oxirida Buxoroga mos Maqom ansambli tarkibida, odatda, 2 ta tanbur, dutor, qo’biz (yoki sato), doira va 2—3 nafar jo’rovov hofizlar bo’lgan. 1920-yillarda tashkil topgan Sharq musiqa maktablarida, Samarqand musiqa va xoreografiya institutida maqom ijrochiligidan saboq berishda Opga Jalol Nosirov, Ota G’iyos Abdug’ani, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Matyoqub Harratov kabi yirik maqomchi ustozlar xizmat qilganlar; 2) O’zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi Yunus Rajabiy nomidagi "Maqom" ansambli. 1959-yilda akademik Yu.Rajabiy tashabbusi bilan tuzilgan. 1989-yildan Yunus Rajabiy nomida. Respublika radiosi huzurida 1927-yilda tashkil topgan o’zbek xalq cholg’ulari ansambli (rahbar Yu. Rajabiy), shuningdek, Hoji Abdulaziz Rasulov, Domla Halim, To’ychi hofiz kabi atoqli hofizlarning boy ijodiy-ijrochilik an’analariga tayanib ish tutdi. Ansamblga tajribali xonanda va sozandalar jalb etilib, milliy cholg’ulardan tanbur, dutor, chang, rubob, g’ijjak, sato, nay, qo’shnay, doira va boshqa kiritildi. Ansambl tomonidan, asosan, Buxoro va Farg’ona-Toshkent makom yo’llari mukammal o’rganilishi hamda noyob ijro uslublari o’zlashtirilishida F. Sodiqov (1961—76 yillarda changchi va musiqa rahbari), J. Sultonov, O. Imomxo’jayev, A. Haydarov, K. Ismoilova, B. Dovidova, O. Alimahsumov, O. Qosimov, T. Alimatov, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artistlar — K. Mo’minov, A. Ubaydullayev, B. Zirkiyev, I. Katayev, S. Aminov, Sh. Ergashev, X. Qodirova, H. Yusupova, Z. Sodiqov, I. Qodirov, shuningdek, I. To’rayev, D. Sottixo’jayev, U. Otayev va boshqalarning ulushi katta bo’ldi. Bu jamoa ijrosida Shashmaqom, Farg’ona—Toshkent maqom yo’llari magnit tasmasi hamda grammofon plastinkalarga yozib olinib, bir necha bor ko’paytirilgan. Yu. Rajabiy rahbarligida keng faoliyat ko’rsata boshlagan bu ijodiy jamoa katta va o’ziga xos maktab yaratishga muvaffaq bo’ldi. Ansamblga badiiy rahbar sifatida ishlagan Yu. Rajabiy (1959—76), O. Alimahsumov (1976—79), Sh. Mirzayev (1979—81), G’. Toshmatov (1981—86), A. Ismoilov (1989—96 va 1999-yildan), Isroil Vahobov (1996—99)larning xizmatlari katta. So’nggi davrdagi ansambl tarkibi ud va qonun cholg’ulari bilan kengaydi, maqomlarning ijro talqinlari yanada ko’paydi. Maqom ansambli ijrochiligining keyingi ravnaqida A. Ismoilov va A. Abdurashidov, O. Hotamov, O. Otaxonov, E. Lutfullayev, H. Rajabiy, M. Tojiboyev, M. Yo’ldoshev, aka-uka Vahobovlar, B. Do’stmurodov, T. Maxmudov,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar A. Xoltojiyev, M. Dalabosova, N. Sattorova, A. Dadayev, M. Ziyoyeva va boshqalarning munosib hissasi bor. Ansambl sozanda va xonandalari nufuzli musiqiy anjumanlar, shu jumladan, YUNESKO qoshidagi xalqaro musiqa kengashining VII kongressi (Moskva, 1971), Xalqaro musiqashunoslik simpoziumlari (Samarqand, 1978, 1983, 1987), "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivallari (Samarqand, 1997, 1999, 2001)da muvaffaqiyatli ishtirok etgan; 3) O'zbekistonning turli joylar (madaniyat saroylari, o'quv yurtlari, viloyat televideniyesi va boshqalar)da tashkil topgan professional va havaskorlik makom ansambllari 1970-yillardan faoliyat ko'rsatmoqda (Xorazm, Andijon, Buxoro, Samarqand, Qo'qon va boshqalar). Maqom ansambllari ustozona makom ijrochiligi an'analarini davom ettirgani holda boshqa mumtoz kuy va ashulalarni hozirgi zamon tinglovchilarining didi, talab va ehtiyojlariga moslab ijro etilishiga alohida aqamiyat beradi. 1972-yilda Toshkent konservatoriyasi (hozirda O'zbekiston davlat konservatoriyasi) tarkibida Sharq musiqasi (hozirda An'anaviy ijrochilik) kafedrasida ochilishi bilan sozanda talabalar uchun Maqom ansambli nomli o'quv-amaliy fani joriy etildi. Konservatoriya talabalaridan iborat cholg'u Maqom ansambli ijrosida Buzruk maqomi cholg'u qismlari (1973, rahbar F. Sodiqov), shuningdek, Shashmaqomning barcha mushkilot yo'llari (rahbar dotsent A. Hamidov) ilk bor mukammal holda yozib olinib, 5 ta maxsus grammofon stereo plastinkalar (jami 11 dona) chiqarilgan (1987—91). Xorazm maqomlari to'liq holda 1990-yillarda Xorazm viloyat teleradiosi qoshida tuzilgan Maqom ansambli (badiiy rahbar R. Jumaniyozov) ijrosida magnit tasmasiga yozib olingan. Hozirgi musiqa va san'at kollejlari hamda ba'zi boshlang'ich musiqa va san'at maktab va litseylarida ham maqom yo'llari o'qitilmoqda. 1983-yildan muntazam o'tkaziladigan Maqom ijrochilarining respublika tanlovlarida Maqom ansambllari ham ishtirok etadi. 1991-yilda bu tanlovga Yunus Rajabiy nomi berilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Maqom san'atining gultoji bo'lgan "Shashmaqom" YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilgani hamda uning Rerezentativ ro'yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig'idir. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda maqom san'atini o'rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o'zbek "Shashmaqomi" nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo'shiqlarining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea bo'ldi. Hozirgi kunda yurtimizda Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli, hududlarda maqom jamoalari, O'zbekiston davlat konservatoriyasida shu yo'nalishda maxsus kafedra faoliyat ko'rsatayotgani, sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilayotganini qayd etish lozim. Ayni vaqtda milliy o'zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san'atining keng imkoniyatlaridan biri hisoblanadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Xoshimov A.S. Uyg'ur kasbiy musiqasi an'analari. – Toshkent, 2003.
- 2.Yu.Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. I-V tomlar. – T., 1957-1959.
- 3.M.Yusupov. O'zbek xalq musiqasi (Xorazm aShulalari). – T., 1962.
- 4.Ye.Romanovskaya. O'zbek xalq qo'Shiqlari. I,II-tomlar. – M., 1939.
5. Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Musiqa, 2004. 2. O.Alimaxsumovning suhbat tarzida qoldirgan magnit yozuvlaridan. Toshkent.
6. Yunusov Ravshan. Faxriddin Sodiqov. Maqom san'ati ustalari. – Toshkent, 2005. 56-57 bet.
7. G'ofurbekov T. XX asr o'zbek musiqasi va Yunus Rajabiy. // Musiqa ijodiyoti masalalari. – Toshkent: Qatortol-Kamolot, 1997.